

**BO'LAJAK O'QITUVCHILARNI KASBIY-IJODIY FAOLIYATGA TAYYORLASH
TEXNOLOGIYASI**

Turopova Maxliyo Erkin qiz

Shahrisabz Davlat Pedagogika Instituti

"Ta'lism tarbiya nazariyasi va metodikasi (Boshlang'ich ta'lism)" yo'nalishi 2-kurs magistranti

Annotatsiya: Ushbu maqolada bo'lajak o'qituvchilarni kasbiy ijodiy faoliyatga tayyorlash jarayonining o'ziga xos shakl, metod va vositalarini qo'llash va bu jarayonda tarixiy tajribalarning o'rni haqida fikr yuritilgan.

Kalit so'zlar: *Shakl, metod, qadriyat, innovatsiya, intellektual salohiyat, ta'lism tizimi, amaliy faoliyat.*

Bo'lajak o'qituvchilarni kasbiy-ijodiy faoliyatga tayyorlashda samarali tashkiliy-pedagogik shakl, metod va vositalarni qo'llash boy milliy va umumbashariy qadriyatlarga asoslanadi. Shuningdek, tarbiya jarayonida innovatsion metodlarni qo'llash samarali natijalarga erishishga imkon beradi. Innovatsion metodlar bo'lajak o'qituvchilarda voqealar rivojini oldindan ko'ra bilish, o'zini real voqelikda anglash, kelgusi hayot yo'lini to'g'ri belgilash, axloq, e'tiqod, ishonch va axloqiy qadriyatlar mohiyatini to'g'ri anglash, turli ijtimoiy vaziyatlarda to'g'ri qaror qabul qilish qobiliyatlarini rivojlantirishga yordam beradi.

Tarixiy jarayonda yuz berayotgan ijtimoiy-iqtisodiy hamda ijtimoiy-siyosiy rivojlanishda keng ko'lamdag'i innovatsion tendentsiyalar, fan, madaniyat sohasidagi o'zgarishlar, axloq, estetika va san'atning boshqa turlaridagi nomutanosibliklar chuqur ta'sir ko'rsatdi va ta'sir ko'rsatish davom etmoqda. Bunday ta'sirlardan ta'lism sohasi ham chetda qolmayapti. XXI asrning birinchi o'n yilligi va undan keyin ham moddiy boylikning bilim, tajriba, ko'nikma, sog'liq, jismoniy rivojlanish darajasiga bog'liq bo'lib qolishi bashorat qilinmoqda. Binobarin, har bir jamiyat taraqqiyotini ta'minlashda ilm-fan va madaniyat muhim o'rinn tutadi. Jahondagi ilg'or mamlakatlar tajribasi bunga yaqqol misol bo'la oladi. Zero, ta'lism-tarbiyaga ustuvor ahamiyat berish mamlakat va xalqning istiqbolini belgilab beradi.

AQSH, Yaponiya va Janubiy Koreya kabi mamlakatlar tajribasi ta'lism tizimini rivojlantirishga alohida e'tiborning qaratilishi, uning jamiyat tomonidan moddiy va ma'naviy qo'llab-quvvatlanishi soha rivojlanishini ta'minlashda yetakchi omil ekanligini tasdiqlamoqda.

Shu bois mustaqil O'zbekistonda ham ta'lism tizimini rivojlantirish, uni jahon standartlari darajasiga ko'tarish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida e'tirof etildi va ana shu maqsadda keng ko'lamli islohotlarni amalga oshirish ijtimoiy maqsad etib belgilandi. Ta'lism tizimida islohotlarni amalga oshirishdan ko'zlangan maqsad faol, mustaqil, mas'uliyatli, aniq hayotiy maqsad hamda mustaqil fikrga ega, shuningdek, mavjud murakkab sharoitda hayot muammolarini hal etishga qodir bo'lajak o'qituvchiini shakllantirishdan iboratdir.

Jamiyat taraqqiyoti va bo'lajak o'qituvchi rivojining o'zaro uyg'unligi yangi ijtimoiy-iqtisodiy sharoitda sub'ektning funktsional imkoniyatlarini rivojlantirish bilan bog'liq.

Pedagogik va psixologik yo'naliishlarda amalga oshirilgan tadqiqotlar natijalarining ko'rsatishicha, ijtimoiy munosabatlar jarayonida raqobat yetakchi o'rinn tutayotgan bugungi kunda ham yoshlar mazkur sharoitda yashash va faoliyat ko'rsatish, qiyin vaziyatlardan chiqib ketishga psixologik va ijtimoiy jihatdan tayyor emaslar.

Shu nuqtai nazardan qaraganda, jamiyatda amalga oshirilayotgan ijtimoiy, shu jumladan, ta'limiy islohotlarning natijasi yosh avlodning intellektual salohiyat, yuksak aql-zakovatiga, ta'lim-tarbiya tizimini jahon andozalari asosida rivojlantirishga, eng yangi texnologiyalarni ta'lim jarayoniga kiritilishiga, uning milliy zaminini mustahkamlashga qaratilganligi bejiz emas.

Jamiyatning hozirgi taraqqiyoti inson faoliyatining ma'naviy va moddiy sohalarida katta o'zgarishlar qilishni taqozo etmoqda. Bu bo'lajak o'qituvchi omili, uning ijtimoiy-siyosiy faoliyati rolining ahamiyati ortib borayotganligi bilan belgilanadi. Zero, bo'lajak o'qituvchi intellektual qobiliyatini rivojlantirmay, uni ma'naviy-axloqiy tarbiyalamay, shuningdek, imkoniyatlarining yangi qirralarini to'la ro'yobga chiqarmay turib ijtimoiy taraqqiyotga erishib bo'lmaydi. Jamiyat tomonidan bo'lajak o'qituvchi imkoniyatlarini ro'yobga chiqarish uchun zarur shart-sharoit yaratilar ekan, o'z navbatida o'qituvchi qobiliyati, imkoniyatlari ana shu jamiyatning ham ijtimoiy, ham iqtisodiy, ham madaniy jihatdan rivojlanishiga o'z hissasini qo'shadi. Ayni vaqtda o'qituvchining kasbiy-ijodiy faoliyatga tayyorligi, qobiliyati, imkoniyatlarini rivojlantirish va uni yagona ijtimoiy maqsadga yo'naltirish o'ziga xos dolzarblik kasb etmoqda.

Mayjud sharoitda ta'lim tizimida 1) bo'lajak o'qituvchiga yo'naltirilgan maqsadli ta'lim (ta'limiy jarayon bo'lajak o'qituvchining sub'ektiv tajribasiga tayangan holda olib boriladi); 2) amaliy-faoliyatli (bo'lajak o'qituvchi ta'limiy faoliyatning faol sub'ekti hisoblanadi); 3) ta'limga insonparvarlik-shaxsiy (pedagogik munosabatlarni insonparvarlashtirish va demokratlashtirish, ijobjiy "Men" kontseptsiyasini shakllantirish) kabi yondashuvlar yetakchi o'rinn tutmoqda. Bunday yondashuvlar asosida tashkil etilgan ta'lim jarayonida ta'lim oluvchi bo'lajak o'qituvchi:

- o'rganilayotgan muammo bo'yicha shaxsiy fikrlarini erkin bayon etish, ularni yangi muammolarni aniqlash va hal etishda qo'llay olish;
- turli ijtimoiy guruhlarda muloqotga kirisha olish, turli soha va turli vaziyatlarda ziddiyatlarni mohirlik bilan hal qila bilish;
- axloqi, intellekti, madaniy darajasini rivojlantirish yo'lida mustaqil izlanish va hokazolar.

Ushbu talablar O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni va g'oyalalarida ham o'z ifodasini topgan bo'lib, ta'lim jarayonining ularga muvofiq tashkil etilishi ijtimoiy buyurtmaning muvaffaqiyatli bajarilishini ifodalaydi. Jumladan, pedagog olimlar Sh.Qurbanov, M.Quronov, E.Seytxalilovlar bo'lajak o'qituvchini kasbiy-ijodiy faoliyatga tayyorlashda ta'lim jarayonini takomillashtirishning asosiy shartlari uni insonparvarlashtirish, ijtimoiylashtirish, tabaqlash, fuqarolik va sog'lom turmush tarzi asoslarini shakllantirishdan iborat ekanligini ko'rsatib o'tadilar: "Milliy model va dastur...

o'z Vataniga fidokor, istiqlol va demokratiya g'oyalariga sadoqatli bo'lajak o'qituvchini shakllantirishga xizmat qiladi. Ijtimoiy-siyosiy hayotda ongli ravishda qatnashadigan, ijtimoiy jarayonlarga faol ta'sir ko'rsatadigan, o'z mamlakati taqdiri uchun mas'ul bo'lgan o'qituvchini tarbiyalash ta'lim islohotlarining bosh maqsadlaridan biridir".

Bildirilgan fikrlardan anglanadiki, ta'lim tizimidagi ustuvor maqsad bo'lajak o'qituvchilarni kasbiy-ijodiy faoliyatga tayyorlashdan iboratdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Jumaeva N.E. Umumiy o'rta ta'limni insonparvarlashtirishda o'qitish tamoyillari va metodlarining o'zaro aloqadorligi: Ped.fan.nomz. ... diss. avtoref. – T.: 2005. – 22 b.
2. Jo'raev R.H., Safarova R.G', Musaev U.Q. Pedagogika fanlari kontseptsiyasi // Xalq ta'limi j., 2004, №5. – 8-32-b.
3. Zunnunov A. Pedagogika tarixi /Oliy o'quv yurtlari uchun darslik. – T.: Fan, 2004. – 335 b.
4. Ibragimov X., Abdullaeva Sh. Pedagogika / O'quv qo'llanma. – T.: Fan, 2004. – 182 b.
5. Yo'ldoshev J.G', Usmonov S.A. Pedagogik texnologiya asoslari /Qo'llanma. – T.: O'qituvchi, 2004. – 104 b.